

AMERIKA VA O‘ZBEK MA’RIFATPARVARILARNING ADABIY-SIYOSIY QARASHLARI¹¹

Xudoyberdiyev Jasur Latipovich

Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti (TXVU)

katta o‘qituvchi

Toshkent, O‘zbekiston

jhudoyberdiev@wiut.uz

+998712387400

Orcid ID: 0000-0001-6420-9899

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amerika ma’rifatparchilik va o‘zbek jadidchilik harakati davri adabiyotining siyosiy masalalarni yoritishi, har ikki harakat vakillari ijodidagi adabiy-siyosiy tendensiyaga e’tibor qaratildi. Biz XVIII-XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit va siyosiy voqealik adabiy asarlarning shakllanishiga ta’sirini tahlilga tortishga harakat qildik. Bundan tashqari, ushbu maqolada ko‘rib chiqilayotgan davrdagi ayrim adabiy asarlarga chuqur nazar solib siyosiy voqealar bilan aloqasi tadqiq qilindi. Shuningdek, yozuvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va bu ular yaratgan asarlarga qanday ta’sir ko‘rsatganligi atroflicha tahlil qiladi. Turfa xil siyosiy vaziyat va tendensiyalari bilan amerika ma’rifatchilik davri adabiyotini kuzatadigan bo‘lsak, adabiyotda yangi janr turlarining paydo bo‘lishi, o‘zbek milliy adabiyotida esa jahon adabiyoti ta’sirida turli janrlar transformatsiyani kuzatishimiz mumkin. Amerika ma’rifatchilik davri adabiyoti o‘zining turli tuman siyosiy tendensiyalari, kashfiyotlari, adabiyotda janrlarning yangi turlarining paydo bo‘lishini kuzatadigan bo‘lsak, o‘zbek milliy adabiyotimizda bo‘lsa jahon adabiyoti tajribalaridan kelib chiqib, yangicha ma’rifiy, ilmiy-badiiy jarayonni tashkil etilganini ko‘rishimiz mumkin.

KALIT SO‘ZLAR

Jadid, amerika adabiyoti, mustaqillik, erkinlik, siyosat, adabiy-siyosiy, o‘zbek adabiyoti, janrlar, transformatsiya

Received: December 23, 2024

Accepted: January 22, 2024

Available online: March 1, 2025

¹¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xudoyberdiyev J.L. Amerika va o‘zbek ma’rifatparvarlarining adabiy-siyosiy qarashlari.

// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 69-80

ЛИТЕРАТУРНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АМЕРИКАНСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ

Худойбердиев Жасур Латипович

старший преподаватель

*Международный Вестминстерский
университет в г. Ташкенте (МВУТ)*

Ташкент, Узбекистан

jhudoyberdiev@wiut.uz

+998712387400

Orcid ID: 0000-0001-6420-9899

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматривается освещение политических проблем в литературе периодов американского Просвещения и узбекского движения джадидов, а также выявляется политическая тенденция в литературном творчестве представителей обоих движений. В работе анализируется влияние социально-политической среды и политической атмосферы XVIII-начала XIX вв. на создание художественных произведений. Кроме того, в настоящей статье с целью выявления связи с политическими событиями подробно рассматриваются некоторые конкретные литературные произведения указанного периода. В частности, особое внимание уделяется анализу социально-экономического положения писателей и его влиянию на созданные ими произведения. Рассмотрев американскую литературу эпохи Просвещения с присущим ей необычайным разнообразием политических взглядов и тенденций, мы можем отметить появление в ней новых жанров, в то время как в узбекской национальной литературе под влиянием мировой литературы отмечается новаторская организация просветительского, научно-творческого процесса.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Джадид,
американская
литература,
независимость, свобода,
политика, литературно-
политический, узбекская
литература, жанры,
трансформация

LITERARY AND POLITICAL VIEWS OF AMERICAN AND UZBEK ENLIGHTENERS

Khudoyberdiev Jasur Latipovich

Senior Lecturer

Global Education Department

Westminster International

University in Tashkent (WIUT)

Tashkent, Uzbekistan

jhudoyberdiev@wiut.uz

+998712387400

Orcid ID: 0000-0001-6420-9899

ABSTRACT

The purpose of this paper is to analyze the political elements present in literature during the American Enlightenment and Uzbek Jadid movement, and to uncover the political inclinations expressed in the literary works of the representatives from these periods. We have tried to shed light on the effect of the socio-political environments and the political atmospheres during the 18th and early 19th centuries in shaping aesthetic works. Moreover, the current article deeply examines some specific literary works during the times in question and reveals their relation to political events. Furthermore, the writers' socio-economic status and how it impacted the works they produced will be thoroughly analyzed. If we observe the literature of the American Enlightenment period with its various political agendas and trends, the emergence of new types of genres in literature, while in the Uzbek national literature, under the impact of world literature, a variety of genres started to appear to reflect the transformations in the society.

KEY WORDS

Jadid, American literature, Independence, freedom, politics, literary and political, Uzbek literature, genres, transformation

KIRISH

Adabiyotning siyosatga, siyosatning adabiyotga munosabati yangi hodisa emas. Adabiy siyosat - dastavval siyosat va adabiyotning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslikda siyosat va adabiy munosabatlari olimlar o'rtasida bir qator chalkashliklarni yuzaga keltirgan masala hisoblanadi. Kimlardir adabiy siyosatni qo'llab, ijobiy baholashgan bo'lsa, kimlardir adabiy siyosatga norozi kayfiyat ila munosabat bildirishgan. Adabiyotda siyosiy masalalarning talqini haqida so'z borganda qadimgi adabiyot, miflarga yuzlansak ham xato bo'lmaydi. Chunki har bir davrda realistik qarash, voqealar silsilasiga tanqidiy munosabat, zamon bilan hamohang masalalar talqini mavjuddir.

Adabiyot va siyosat o'rtasidagi munosabatni bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki jihat sifatida ko'rish mumkin. Estetik asarlar yaratilishida siyosiy voqealarning ta'siri ayrim tahlillarda ko'rsatilishicha siyosatning adabiyotga munosabatini, ya'ni butun bir muhit bilan siyosiy vaziyatning bog'liqligini badiiy asar shakllanishida kuzatishimiz mumkin (Blaiha, 2019, 119) Adabiyot ilmi yaratilgandan buyon asarlarda siyosiy masalalar talqinlari, adabiyot bilan siyosat o'rtasidagi munosabatlar mavjuddir. Lekin bu jarayon har bir davrda turli jihatdan o'z aksini topgan. Dunyo adabiyotshunosligida adabiy siyosat bo'yicha yetarlicha ilmiy ishlar mavjud va adabiyotshunoslar, siyosatshunoslar tomonida o'rganilgan hamda turli qarashlar bilan ilmiy izohlangan (Matkurbanova, 2022). O'zbek adabiyotida siyosat bilan adabiyot uzviy bog'liqlikda kelsa-da, alohida ilmiy jamlanma sifatida tadqiq qilingan emas, alohida bu bo'yicha monografiyalar yozilmagan, nazariy jihatdan to'la o'rganilib, o'quv qo'llanma va darsliklar yaratilmagan.

Ikki tomonlama jarayonni tashkil qilgan adabiyot va siyosat bir-biriga doimo ta'sir qiladi va biri ikkinchisini to'ldiradi. Adabiy siyosatning (*literary politics*) kelib chiqishi qadimgi davrlarga to'g'ri kelsa-da XVI asrning oxirida ushbu masala adabiy muammo sifatida o'rganila boshlandi (Fekete, 1986). U bundan ichki adabiy raqobatda ham, siyosiy jarayonlarga ta'sir qilishda ham foydalanadi. Adabiy siyosat tushunchasi tarixiy jihatdan o'zgaruvchan hamda keng miqyosli bo'lsa-da, uning

asosini siyosiy kuchlar bo‘lmish davlat boshqaruvi manfaatlaridan samarali foydalanish tashkil qilgan. Siyosiy hokimiyat yoki davlat adabiy siyosatning muhim subyekti bo‘lib qoldi.

“Adabiyot bilan siyosat bog‘likligi ba‘zan muammoli va tushunib bo‘lmas vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Ammo, aynan shu murakkabliklar ushbu muammoni shu qadar jozibali va e‘tiborga loyiq qiladi” (Abdullayev E., 2017, 40)- deya e‘tirof etadi rus olimi Abdullayev Yevgaiy Viktorovich. Adabiyot va siyosat bir-biriga begona emas va ularning yaqinligi uzoq tarixdagi munosabatlarning turli shakllarini qamrab oladi. Yozuvchilar Aflotunning faraziy respublikasi davridan beri davlat bilan ziddiyatda bo‘lib, muallifning tasavvurlari va xohishlariga qarshi chiqishgan (Fekete, 2009, 48).

XIX asrda jamoat maydonining, so‘z va matbuot erkinligining cheklanishi tufayli, Aleksandr Gertsen ta’kidlaganidek, adabiyot parlament bilan o‘rin almashdi. Unda muhim ijtimoiy masalalar muhokama qilindi. Bu atamaning Baxtincha ma’nosi ikkinchi darajali nutq janri - realistik romanning gullab-yashnashi tufayli sodir bo‘ldi. Roman janrining tuzilishida birlamchi nutq janrlari, masalan, argument ishlatilgan. Biz “siyosiy bahs” tushunchasini asosiy nutq janrining tematik xilma-xilligi sifatida izohlaymiz. Siyosiy bahs-munozaralarda tom ma’noda siyosiy bo‘lmagan, lekin insonning siyosiy voqelikdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi. Uslubiy jihatdan bu holatda siyosat tushunchasini so‘zning tor va keng ma’nosida aniqlashtirish zarur.

ASOSIY QISM

Hukumat yoki hokimiyat taqsimoti yoki ikkalasiga tegishli deb tushuniladigan siyosat har bir adabiy jarayonning markazida turadi. Adabiy obro‘-e‘tiborga ega siyosat haqida gap ketganda, kim mashhur bo‘lishi, kim qaror qilishi va bu qarorlar qanday asosda qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi (Bowskill, 2022). Ijtimoiy boshqaruv tuzilmalari sifatida maydonga kelgan hokimiyatni barpo etish masalasi siyosiy jarayon hamda ingliz adabiyotida ham Reformatsiya davridan keyin hukumatning asosiy tarkibiga tegishli hodisa bo‘lib kelgan. Shekspir

asarlarida “Tarix” va “Rim” voqealariga tegishli spektakllarda ham hikoyalar va to‘qnashuvlar to‘ridan-to‘g‘ri siyosat mavzusiga bag‘ishlanadi, *Makbet*, *Qirol Lir*, *Gamlet* va *Otello* kabi buyuk tragediyalar esa o‘zlarining ahamiyatini to‘sqinlik qilingan yoki amalga oshirilgan siyosiy ambitsiyalarning ko‘lamidan va uning ifodalangan harakatlar ostida yotgan butun jamiyatlarga ta’siridan kelib chiqadi (Philips and Shaw, 2013). XX asrning 30-yillarida sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlarda, shuningdek, Germaniyada adabiy siyosatga oid asarlar paydo bo‘ldi. Ba’zi tadqiqotlar ingliz mustamlakachi hokimiyatlarining adabiy siyosati birinchi navbatda Hindistonda paydo bo‘lib, bu alohida yirik yozuvchilarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa edi. 1990-yillarning oxiridan boshlab adabiyot siyosati tushunchasi adabiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga nisbatan ko‘proq qo‘llanila boshlandi. XX asr venger adabiy tanqidchisi Georgiy Lukach tomonidan adabiy siyosat termini bo‘yicha ayrim mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, adabiyot va siyosat o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p adabiyotshunos olimlar o‘rtasida bir qadar chalkashliklar va muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqargan.

Kimlardir adabiy siyosatni qo‘llab, ijobiy baholashgan bo‘lishsa, kimlardir adabiy siyosatga norozi kayfiyat ila munosabat bildirishgan. «*Siyosat va adabiyot o‘rtasidagi munosabatlar yillar davomida muhokama qilinadi*»- deya ta’kidlaydi turk jurnalisti va yozuvchisi Hashmet Babao‘g‘li. “*Adabiyot yo‘li ko‘pincha hozirgi siyosat bilan kesishadi; lekin ular bir-birini to‘ldirmaydi va “kesishmaydi*”- deb yozadi, yana bir turk huquqshunos olimi Feyzulloh Kikiklik. Turk adabiyotshunoslari, siyosatchi va tarixchilari o‘rtasida adabiyot va siyosat masalalari turli bahsli holatlarni keltirib chiqardi. Yana bir turk huquqshunoslaridan Sibel Eraslan: “*Siyosat - bu boshqaruv san’ati. Siyosatchi bilimdonga ta’sir qila olmaydi, ammo bilimdon kishi asarlari va g‘oyalari bilan siyosatchilarga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Adabiyotni hech qachon siyosatga qurbon qilish kerak emas. Adabiyotning rivojlanishida mamlakat tarixi mujassam. Adabiyot oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi yaxshi odamlar tarbiyalash bo‘lishi kerak. Buning uchun bo‘lsa bevosita san’atdan foydalanish shart*”-deya e’tirof etadi. Adabiy siyosatning

rivojlanish tendensiyalari qadimgi davrda boshlangan bo'lsa, ma'rifatchilik davrida alohida tus ola boshladi.

XVIII asrga kelib Shimoliy Amerika, Amerika koloniyalari va umuman G'arbiy Yevropada insonlar yangi hayotga intilib, tobora yangicha fikrlash keng tarqab bordi. Yevropa tarixida avvalgi davrlarga nisbatan keskin farq qiluvchi bu davr ma'rifatchilik davri sifatida keng tanilgan hamda ziyolilar qo'llab quvvatlanib, ular orasida qadriyatlarga, mustaqil tafakkur va ilm-fanga e'tibor juda ham kuchaydi.

Ushbu jihatlar ma'rifatchilik adabiyotiga ham keng yo'llarni ochilishiga sabab bo'ldi. Ma'rifatparvarlarning targ'ib etgan adabiyotining turli xususiyatlari bo'lib, bir necha asrlar mobaynida adabiyot siyosiy jihatdan kuchli rahbarlar hamda Rim katolik cherkovi tomonidan belgilab qo'yilgan chegaralarni chetlab o'tdi. Islohot yillarida ham yozuvchilar yangi mazhablarga qanday munosabatda bo'lishni bilmas edilar. Biroq, ma'rifat davrida hokimiyat arboblari endi yaxshi o'lja bo'lgan edilar. Maydonga kirib kelgan yangi avlod yozuvchilari adabiyotning o'z oldiga qo'ygan yangi vazifalari bo'yicha yangicha fikr va qarashlari bilan bir qatorda, badiiy asarlardagi yangi mazmun va shakllar bilan ma'rifatchilik adabiyotini boyitdilar. Shunday qilib, Yevropa ma'rifatparvarlari o'zlarning badiiy ijodlarini jamiyatning qayta qurish masalalariga qaratish bilan bir qatorda adabiyotga butunlay yangi vazifalarni yuklashga muvaffaq bo'ldilar (Saidov, 2004, 18).

Garchi ozodlikdan mahrum etish jazosi xavfi bo'lsa-da, amerikalik yozuvchilar siyosiy va diniy qarashlarga qarshi chiqishga tayyor edilar. Buning asosiy sababi o'sha davrning so'nggi ilmiy kashfiyotlari edi. Galiley qarashlariga cherkov tomonidan to'sqinlik qilingan bo'lsa-da, Bekon va N'yuton kabi yangicha fikr egalari aql bilan isbotlashlari mumkin bo'lgan zamonaviy kashfiyotlar yaratishga tayyor edilar. Ma'rifatchilik davrida Amerikada savodxonlik darajasi sezilarli ravishda o'sdi.

O'z xohishlari bilan o'qib, bilim olganlar xalq orasida tobora ortib borardi. Bunga asosiy sabab bilimli inson g'oyasi ancha e'tiborga olinadigan bo'ldi.

Angliyada ingliz tilidagi lugʻatlardan birini yozgan Semuel Jonsonning ishida aniq koʻzga tashlanishi mumkin. U oʻzining lugʻatida nafaqat soʻzlarga taʼriflarni, balki sharhlarni ham taqdim etdi. Unutmaslik lozimki, Yevropa maʼrifatchiligi adabiy yoʻnalish emas, balki adabiyot va sanʼatga oʻzining toʻliq va har tomonlama ifodasini topgan falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiyadir.

Turkiston maʼrifatchilik davri adabiyotini “milliy uygʻonish” adabiyoti deb yuritilib, asosan jadidchilik tendensiyalariga eʼtibor berilgan. Milliy uygʻonish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat gʻoyalarining adabiy-badiiy ifodasi edi. Lekin gap shundaki, u jadidchilikning shunchaki bir koʻrgazmasi (illyustratsiyasi) boʻlib qolmadi, chinakam adabiyotga aylandi. U yangi adabiyotni boshlab berdi. Avji taraqqiysi 1915-1925 yillarga toʻgʻri keldi. Turkistonda maʼrifat targʻib qilish jadidchilik harakatlari bilan bogʻliq boʻlib uning faoliyati maktabdan, maorifdan boshlanib, soʻng matbuot, sanʼat va siyosatda oʻz oʻrnini shakllantirdi.

Jadidlarning xalq maʼrifati uchun kurash dasturi uch asosiy yoʻnalishni oʻz ichiga olgan edi. Ulardan birinchisi yangi usul maktablarini ochish, ikkinchisi turli maʼrifiy jamiyatlar yaratish, uchinchi boʻlsa iqtidorli va umidli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish (Saidov, 2004). Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta olgan jadidchilik gʻoyalari matbuot, maorif va madaniyatni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Adabiy jarayonda muhim oʻzgarishlar sodir boʻlib, yangidan yangi yozuvchi va shoirlar, munaqqid va tarjimonlar maydonga keldi. Maxmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli –Choʻlpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Muhammadsharif Soʻfizoda, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari oʻnlab adabiyot namoyandalari maʼrifatparvarlik yoʻnalishidagi adabiyot anʼanalarini davom qildirib, yangi adabiyotga debocha boshlab berdilar (Yoqubov, 2012).

Yevropa maʼrifatchilik davrida savodxonlik ancha yuqorilab, keng asosga ega boʻlgan jamiyatning ayrim qatlamlarida kitob oʻqish sevimli mashgʻulotiga aylandi. Odamlar matbuotdan keladigan koʻplab davriy nashrlar va gazetalarni koʻrish uchun

qahvaxonalarga tashrif buyurishdi. Ular o‘qish klublariga a‘zo bo‘lishar yoki kutubxonalardan kitob olib o‘qishardi. Jadid ma‘rifatparvarlari nafaqat ijodkor, balki jamoat ishlarda faol qatnashuvchi arboblardir ham edilar. Ushbu ma‘rifatparvarlar qalamlari bilan bir qatorda ijtimoiy–siyosiy harakatlari bilan ham o‘z millatini g‘aflatdan uyg‘otishga harakat qilishgan.

AQSHda 1789 yilda yaratilgan Konstitutsiya ham aynan Amerika adabiyotiga asos solgan arboblardir tomonidan yozilgan bo‘lib, ular 1775-1783 yillarda sodir bo‘lgan inqilobga rahbarlik qilgan XVIII asrning eng mashhur adiblari edilar. Bu yozuvchilarning ko‘plari haqiqiy faylasuf bo‘lishib, ular ijodida siyosiy risolalar muhim ahamiyat kasb etardi. Ular inson tabiatini ,inson aqlini tushunishi mumkinligi haqidagi tushunchalarga ega edilar.

Insonni gunohkor muvaffaqiyatsizlik sifatida ko‘rgan puritanlardan farqli o‘laroq, ma‘rifatparvar mutafakkirlari inson o‘zini o‘zi yaxshilashi mumkinligiga amin edilar. Ular adolat va erkinlikka asoslangan baxtli jamiyat yaratishni maqsad qilganlar. Ma‘rifatchilik davrining ilg‘or ijodkorlaridan Benjamin Franklinni alohida e‘tirof etish kerak. Chunki Amerika ma‘rifatchiligining eng ilg‘or g‘oyalarini aynan Franklin ijodida kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyoning geografik holatiga ko‘ra Yevropa mamlakatlari bilan aloqa o‘rnatish imkoniyati ancha chegaralangan edi, bu esa o‘z navbatida Osiyo mamlakatlari Rossiya, Yaqin va O‘rta sharq mintaqalarini vositachi vazifasini bajarishga undadi. Bundan tashqari Haj safari va turli sayohatlarga borgan Markaziy Osiyo ziyolilari Turkiya, Afg‘oniston va boshqa arab mamlakatlaridagi ziyolilardan tajriba almashishdi.

Shunday qilib, Yevropa madaniyati bilan o‘zbek ziyolilari bevosita bo‘lmasa-da, bilvosita tanishdilar. Avval Turkiya va arab mamlakatlari islohotchilari, undan keyin Rossiya hamda tatar jadidlari, so‘ngra ozarbayjon va butun O‘rta Osiyo jadidlari dunyoviy bilimlar berishda xorijiy tillarni o‘rgatishda katta ishlarni amalga oshirdilar, maktablar ochdilar va maorif sohasini isloh qilishda ham o‘z mehnatlarini ayamadilar. Adabiyotlarning yangicha yo‘nalishdagi namoyandalari qozoq arbobi

Abay, arab yozuvchisi Jurji Zaydon, hind yozuvchisi R.Tagor, qrimtatar arbobi I.Gaspirali kabi yozuvchilar o'zbek jadid adabiyotining rivojlanishida o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan siyosiy qarashlar ma'rifatchi adiblarning asarlarida ham o'z aksini topdi. Ko'rinib turibdiki, amerika adabiyoti ta'sirida yangicha qarash ya'ni axloq odobga chaqirishdagi pand-nasihatlarining o'rniga didaktizm deb ataladigan ijtimoiy-maishiy muammolarni o'z ichiga olgan hodisa egallay boshladi va bu jarayon o'z navbatida adabiyotdagi, ma'rifiylik, pand-nasihat bilan qo'shilib ketdi. G'oyaviy va ma'rifiy o'sish jarayonlarini amerika ma'rifatchilik davri adiblarida bo'lganidek o'zbek jadid adabiyoti vakillari ijodida ham kuzatishimiz mumkin. Aynan milliy adabiy an'analar ma'rifatchilik adabiyotining yo'nalishi, mavzu va mundarijasi, adabiy tur va janrlarning takomillashuviga xizmat qildi.

Turkistonda XX asr boshlari adabiyoti yangicha qarash, yangi ruh va g'oyalarni olib kirdi. Bu davr adabiyotning mavzu doirasi ancha kengaydi va badiiy asarlarda hajviyotning yangi turlari paydo bo'ldi. Davr adiblari millat qayg'usi va uning muammolarini ko'tarib chiqibgina qolmay balki uning yechimini ham topdilar, ya'ni millat ongi va tafakkurini isloh qilish va shu mazmundagi asarlar yozib zarurligini tushuntirdilar.

Amerika va o'zbek adabiyotida ma'rifatchilik davri ulkan voqealarning guvohi bo'lgan davr hisoblanadi. Shu sababli bu davr tarixda o'chmas iz qoldirdi. Amerika ma'rifatchilik davri adabiyoti o'zining turli tuman siyosiy tendensiyalari, kashfiyotlari, adabiyotda janrlarning yangi turlarining paydo bo'lishini kuzatadigan bo'lsak, o'zbek milliy adabiyotimizda bo'lsa jahon adabiyoti tajribalaridan kelib chiqib, yangicha ma'rifiy, ilmiy-badiiy jarayonni tashkil etilganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev. E. “*Zachem nujna “literaturnaya politika”*”. – Voprosi literaturi, 2017, № 1, C.7-40
2. Baxtin, M. *Estetika slovestnogo tvorchestva*, Moscow 1979.-B. 237.
3. Blaiha, M. Politics and Literature English Literary Work as a Model. *International Journal of Social Science and Economics Invention*, 5 (01). Available from <https://doi.org/10.23958/ijsssei/vol05-i01/92> [Accessed 20 January 2025].
4. Fekete, J. Literature and Politics/Literary Politics. *Library.dal.ca*. Available from <https://dalspace.library.dal.ca/items/1063ef3c-1256-40d6-a8d7-405267de5f2a> [Accessed 20 January 2025].
5. Izdiham. Siyaset Ve Edebiyat İlişkisini Ünlü Siyasetçi, Yazar Ve Şairlere Sorduk - İzdiham Dergi. *İzdiham Dergi*. Available from <https://www.izdiham.com/siyaset-ve-edebiyat-iliskisini-unlu-siyasetci-yazar-ve-sairlere-sorduk> [Accessed 20 January 2025].
6. Matkurbanova, O. Adabiyotshunoslikda Adabiy Siyosatning Yuzaga Kelishi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (5). Available from <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyotshunoslikda-adabiy-siyosatning-yuzaga-kelishi> [Accessed 20 January 2025].
7. Philips, D. and Shaw, K. *Literary Politics*. Springer. 2013.
8. Saidov, U. *Yevropa ma’rifatchiligi va milliy uyg‘onish*. –T.: Akademiya, 2004. - B.18
9. Sarah E.L. Bowskill. *The Politics of Literary Prestige*. Bloomsbury Publishing USA. 2022.
10. Yuqobov, I. *Milliy uyg‘onish davri o‘zbek nasri*. –T.: Fan va texnologiya, 2012.- B.7

REFERENCES

1. Abdullayev. E. (2017) “*Zachem nujna “literaturnaya politika”*”. – Voprosi literaturi, 2017, № 1, C.7-40
2. Baxtin, M. (1979). *Estetika slovestnogo tvorchestva*, Moscow 1979. B. 237.
3. Blaiha, M. (2019). Politics and Literature English Literary Work as a Model. *International Journal of Social Science and Economics Invention*, 5 (01). Available from <https://doi.org/10.23958/ijsssei/vol05-i01/92> [Accessed 20 January 2025].
4. Fekete, J. (1986). Literature and Politics/Literary Politics. *Library.dal.ca*. Available from <https://dalspace.library.dal.ca/items/1063ef3c-1256-40d6-a8d7-405267de5f2a> [Accessed 20 January 2025].
5. Izdiham. (2016). Siyaset Ve Edebiyat İlişisini Ünlü Siyasetçi, Yazar Ve Şairlere Sorduk İzdiham Dergi. *İzdiham Dergi*. Available from <https://www.izdiham.com/siyaset-ve-edebiyat-iliskisini-unlu-siyasetci-yazar-ve-sairlere-sorduk> [Accessed 20 January 2025].
6. Matkurbanova, O. (2022). Adabiyotshunoslikda Adabiy Siyosatning Yuzaga Kelishi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (5). Available from <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyotshunoslikda-adabiy-siyosatning-yuzaga-kelishi> [Accessed 20 January 2025].
7. Philips, D. and Shaw, K. (2013). *Literary Politics*. Springer.
8. Saidov, U. (2004) *Yevropa ma’rifatchiligi va milliy uyg’onish*. T.: Akademiya, 2004. B.18
9. Sarah E.L. Bowskill. (2022). *The Politics of Literary Prestige*. Bloomsbury Publishing USA.
10. Yuqobov, I. (2012). *Milliy uyg’onish davri o’zbek nasri*. T.: Fan va texnologiya, 2012. B.7